



SAMARQAND VILOYATI NARPAY TUMANI HOKIMI Q A R O R I

2021 йил «19» июл

16-7-98-Q/21

Нарпай тумани ҳокимлиги

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyulda “Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5177-sonli qarori hamda shu mazmunda Samarqand viloyati hokimining 2021-yil 12-iyuldagi 5-7-0-Q/21-sonli qarori ijrosini ta’minlash haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi “Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo‘lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6257-sonli Farmoniga muvofiq, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishini samarali tashkil etish maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5177-sonli qarori hamda shu mazmunda Samarqand viloyati hokimining 2021-yil 12-iyuldagi 5-7-0-Q/21-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan:

2021-yil 1-sentabrdan boshlab davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, davlat unitar korxonalari va muassasalari, davlat ulushi 50 foizdan yuqori tashkilotlarda (keyingi o‘rinlarda – davlat organlari va tashkilotlari) ishga qabul qilishni ochiq tanlov asosida amalga oshirish hamda tanlov doirasida o‘tkaziladigan sinov tadbirlarini internet tarmog‘i orqali real vaqt rejimida kuzatishni nazarda tutuvchi tartib joriy etilayotganligi;

2021-yil 1-oktabrdan boshlab barcha davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarida mavjud shtat birliklari doirasida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyati yo‘lga qo‘yilishi;

korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari rahbarlari davlat organlari va tashkilotlari tomonidan Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (keyingi o‘rinlarda – Agentlik) bilan birgalikda o‘tkaziladigan ochiq tanlov asosida ishga qabul qilinadi, ularni lavozimidan ozod etish masalasi Agentlik bilan kelishilishi belgilab qo‘yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari J.Shodiyev, tegishli tashkilotlar bilan birgalikda 2021-yil 1-dekabrdan boshlab xarid komissiyasining ma’lumotlar haqqoniyligini tekshirish va ishtirokchini xarid qilish

tartib-taomillarida ishtirok etishdan chetlatish vakolatlari bekor qilinayotganligi yuzasidan belgilangan tartibga qat'iy rioya etsinlar.

4. Tuman hokimining o'rinbosari (T.Ashurov), tuman Moliya bo'limi (N.Tuyinov), qurilish sohasida shaffoflik va qonuniylikni ta'minlash, korrupsiyaviy holatlarning oldini olish maqsadida 2021-yil 1-oktabrga qadar:

byudjet va unga tenglashtirilgan mablag'lar hamda davlat organlari va tashkilotlari mablag'lari hisobidan qurilish-pudrat shartnomasi uchun o'tkaziladigan tender (tanlash)ni "Shaffof qurilish" milliy axborot tizimining ma'lumot almashinuvini ta'minlagan holda, davlat xaridlari bo'yicha maxsus axborot portalida elektron tarzda o'tkazish amaliyotini yo'lga qo'yish;

qurilish va loyiha tashkilotlari reytingi hamda tender savdolaridagi baholash mezonlari va metodikasini qayta ko'rib chiqib, ularning ochiqqligini ta'minlash hamda qurilish tashkilotlari toifalari va narx bo'yicha taklifni baholash mexanizmini joriy qilish;

elektron tender tizimida ma'lumotlarning haqqoniyligini avtomatik ravishda tekshirish va baholash mexanizmini ishga tushirish yuzasidan takliflarni viloyat Qurilish bosh boshqarmasiga taqdim etsin.

5. Tuman hokimining o'rinbosarlari (J.Shodiyev, T.Ashurov, X.Jumanov, A.Tojiyev, D.Nosirov, Sh.Samadov), tuman hokimligi Tashkiliy-nazorat guruhi rahbari (B.Tulaganov) 2022-yil 1-yanvardan boshlab "halollik vaksinasi" tamoyili asosida davlat xizmatchilarini muntazam ravishda korrupsiyaga qarshi kurashish, manfaatlar to'qnashuvi va odob-axloq qoidalari bo'yicha maxsus o'quv kurslarda o'qitish tizimini joriy etilishi yuzasidan Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga ko'maklashsinlar.

Bunda ushbu tizim doirasida davlat xizmatchilarini o'qitish adliya bo'limlarida amalga oshirilsin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o'rinbosarlari (J.Shodiyev, T.Ashurov, X.Jumanov, A.Tojiyev, D.Nosirov, Sh.Samadov) zimmlariga yuklansin.

Туман ҳокими



Sh.Raxmanov